

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Maxmudova Zulfiya Alimjanovna

Magistr, Andijon davlat universiteti

Pedagogika institutining o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilgari surilgan bosh g'oya mamlakatimizda diniy birlikka berilayotgan e'tibor, ko'p millatli xalqimizning bir osmon ostida tinch va totuv yashab kelayotganliklari bu borada Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumot berilgan. Xalqimiz azal-azaldan o'zining bag'rikengligi bilan ajralib turadi. Bu qon-qonimizga singib ketgan fazilatdir. Maqolada nafaqat hozirgi kunda balki tarixda ham jumladan Amir Temur saroyida ham diniy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilganligi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: zardushtiylik, Avesto, Islom, Bag'rikenglik, Konfessiya, Yangi O'zbekiston, YUNESKO

Annotation. The main idea of this article is the attention paid to religious unity in our country, the fact that our multinational people live in peace and harmony under one roof, and the reforms being carried out in our country. This is a virtue that is ingrained in our blood. The article says that special attention is paid to religious values not only today but also in history, including in the palace of Amir Temur.

Keywords: zoroastrianism, Avesto, Islam, Tolerance, Confession, New Uzbekistan, UNESCO

Аннотация. Основной идеей данной статьи является внимание к религиозному единству в нашей стране, к тому, что наш многонациональный народ живет в мире и согласии под одной крышей, к проводимым в нашей стране реформам. укоренившееся у нас в крови. В статье говорится, что особое внимание уделяется религиозным ценностям не только сегодня, но и в истории, в том числе во дворце Амира Темура.

Ключевые слова: зороастризм, Авесто, ислам, толерантность, вероисповедание, Новый Узбекистан, ЮНЕСКО

*“Ilm va ta’limning qadriga yetib,
davlatimizda ilm va ta’lim o‘rganish bilan
muhit yaratilsa, bobolarimizga munosib
hayot va kelajakni qura olamiz!”*

Sh.M.Mirziyoyev.

Yangi O‘zbekiston-barchamizning ezgu orzumiz,mehnatkash,tinchliksevar xalqimizning orzusi! Unda xalqimizning azaliy-umid-niyatlari,yuksalish sari intilishlari o‘ziga xos tarzda aks etmoqda.Bu orzuda mujassam bo‘lgan xalqimizning istagi-hohish irodasi, dini, tili,taraqqiyparvar g‘oyalarda o‘z ifodasini topganiga qadim tariximiz guvoh.Davrlar nafasi va xalqning ehtiyoj hamda manfaatlari, intilish hamda orzu-havaslariga monand ravishda u goh ezgulik va adolat ,goh qudratli davlat va adolatli shoh, komil inson va ma’rifatli jamiyat bilan bog‘liq olijanob g‘oyalarda namoyon bo‘lgani ma’lum.

U dastlab ko‘hna davrlarda “Avesto”da o‘z talqinini topgan hayotiy g‘oyada mujassam edi.Ayni shu orzu “Ezgu fikr,ezgu so‘z va ezgu amal ”tamoyilining xalq tafakkuri va turmush tarzidan mustahkam o‘rin olishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston hududi qadimdan turlidinlarga e’tiqod qiluvchi ko‘p millatli mamlakat sifatida ajralib turgan. Yurtimizda zardushtiylik, yahudiylik, xrisitianlik va islom diniga e’tiqod qiluvchi aholi emin erkin yashab kelgan. Tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha, yurtimiz hududida diniy sabab boisbirorta nizolar bo‘lmaganligi xalqimizning diniy bag`rikenglik borasida katta tajriba to‘plaganidan dalolat beradi. Tarixiy sharoit, jarayonlar bu zaminda tom ma’nodagi bag`rikenglik tamoyillarining barqaror shakllanganligi, uning natijasida tinch, osuda hayot, ilmiy ma’rifiy yuksalish, taraqqiyot ta’minlanganligini ko’rsatadi.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarida ham diniy bag`rikenglik targ`ib qilingan g`oyalarni uchratamiz. Jumladan, alloma Abu Mansur al-Moturudiyning “Tilovat ahli sunna” asarida Qur’oni karim oyatlaridan birini tafsir etib, “Cherkov va sinagoglarni vayron etish man etiladi. Shuning uchun

ham musulmon o'lkalarda shu davrgacha ular saqlanib qolgan. Bu masalada ilm ahli orasida ixtilof yo'qdir", degan fikrni bildirgan. XV asr boshlarida Temur saroyida bo'lgan Kastiliya elchisining guvohlik berishicha, Temur Samarqandda turli din vakillarini yig'adi, ularga iltifot ko'rsatadi hamda xristian diniga e'tiqod qiluvchi mehmonlarning turli ehtiyojlarini bajarish uchun alohida mas'ul shaxs tayinlaydi. Ular bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashni tayinlaydi. Bugungi kunda ham xalqlar va dinlar orasidagi bag'rikenglik, tolerantlik g'oyasi dunyoning eng dolzarb muammolaridan biridir. Shu munosabat bilan YUNESKO 1995 yil Parijda "Bag'rikenglik tamoyillari deklarastiyasi"ni qabul qildi. Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan esa har yilning 16 noyabr sanasi "Bag'rikenglik kuni" deb e'lon qilindi. Ma'lumki, diniy bag'rikenglik qoyasi – xilma hil dinga e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va xamjixat bo'lib yashashni anglatadi. Qadim – qadimdan din aksariyat milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan bog'liq. Chunki, dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik, poklik, mehr – oqibat va bag'rikenglikka chorlaydi. Mustaqillik sharofati bilan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan O'zbekistonda turli din, millat va elat vakillari farovon yashashi uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'lib, islom, xristianlik, yahudiylik, bahoi jamoalari va krishnani anglash jamiyati, bular bilan birgalikda ularning turli oqimlari va yo'nalishlari vakillari tinch, osoyishta va farovon hayot kechirib kelmoqda.

Mustaqillik sharoitida etnik munosabatlar va din sohasida olib borilayotgan izchil va qat'iy siyosat tufayli mamlakatimizda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik qaror topdi. Konstitustiyamizda «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan

qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar», - degan tamoyilning mustahkamlab qo'yilishi esa, bu boradagi ishlarning qonuniy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlar tolerantlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Tolerantlik-o'zligini anglagan millat vakillarining boshqa millat vakillari tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, ular bilan tinch, farovon hayot kechirishidir. Tolerantlik tuyg'usi insonning xulq atvori, odob axloqi, siyosiy – ma'naviy pokligi, o'z xalqi va milliy merosi boyligi hamda milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. Bu xususiyatlar esa har bir insonda bag'rikenglik, baynalmilallik tuyg'ularini uyg'otadi.

Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 2224 ta diniy tashkilotdan 175 tasi noislomiy bo'lib, ulardan 159 tasi nasroniy, 8 tasi yahudiylar, 6 tasi bahoiy jamoasi, 1 tasi Krishnani anglash jamiyati va 1 tasi buddaviylikni tashkil etadi. Bulardan tashqari Respublikada Konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, “Bugun mana shunday xavfli – tahlikali, o'ta notinch bir davrda jahon moliyaviy inqirozi hali – beri davom etayotgan bir paytda el-yurtimiz nimaiki natijalarni qo'lga kiritmasin, bularning barchasi yurtimizda tobora mustahkam bo'lib borayotgan tinchlik va osudalik, millatlar, dinlar va fuqarolararo totuvlik va ahillik, bir – birimizga hurmat va ehtirom hisobidan desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi”. Darhaqiqat, har bir inson, jamiyat va millatlar bashariyatning turli tuman urf odatlari, madaniyati va qadriyatlarini tan olgan holda bag'rikenglik munosabatida bo'lishlari zarur. Zero, bu taraqqiyot garovidir.

Biz bugun yagona xalq,yagona millat bo'lib,ko'zlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil bormoqdamiz.Vujudimizda,qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat jo'sh urayotgan ekan,biz zgu orzu va maqsadimiz bo'lmish Yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz.Jonajon vatanimiz har tomonlama obod va farovon, erkin demokratik mamlakatga aylanadi.Men millati, tili va dinidan qat'iy

nazar, ana shunday ulug‘ va sharaflı safda –Yangı O‘zbekiston bunıodkori safıda ekanımdan behad baxtıyorman.

Foydalanılğan adabıyotlar ro‘yxatı

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangı O‘zbekiston strategıyası T.: “O‘zbekiston” 2021.
1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikası Oliy Majlisiga Murojaatnoması . “Xalq so‘zi”, 2020- yil, 25- yanvar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqıllık-ezgu niyatlarımız, buyuk maqsadlarımız ro‘yobi yo‘lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikası mustaqıllıgınını yigırma to‘qqız yillıgıga bag‘ıshlangan tantanali marosımdagi nutqı. “Yangı O‘zbekiston”, 2020- yil, 1- sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsıya va qonun ustuvorlıgı-huquqıy demokratik davlat va fuqarolık jamiyatınını eng muhim mezonıdır. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikası Konstitutsıyası qabul qılınanınını 27 yillıgıga bag‘ıshlangan tantanali marosımdagi ma‘ruzası. “O‘zbekiston ovozi”, 2019- yil, 10- dekabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqıdiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlık har bir rahbar faolıyatınını kundalik qoidası bo‘lishı kerak. T.: “O‘zbekiston”. 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagımızni mard va olijanob xalqımız bilan birga quramız. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
6. Toshev A. Osoyishtalik va tinchlık garovi. Do‘stlıkning mustahkam rishtalari. “Yangı O‘zbekiston”, 2020 yil, 8 sentabr, 171-son.
7. Inoyatov U. O‘zbekistonda yangı va yaxlit ijtimoiy himoya tizimi yaratılmoqda. “Yangı O‘zbekiston”, 2020 yil, 203-son.
8. Asrorov U. Yangı qonun: ishonch, xotirjamlık va daxldorlık hissi. “Yangı O‘zbekiston”, 2020 yil, 23 sentabr, 182-son.